



Yan Amos Komenskiyning pedagogik sistemasi

Sobirova Marjona Shavkat qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Telefon raqami: +998975567071

Yuldasheva Parvina Rustam qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Telefon raqami: +998932616224

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika fani rivojiga sezilarli hissa qo'shgan G'arbiy Yevropalik olim Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlari, asarlarida tarbiyaning maqsadi, tarbiyani tabiat bilan uyg'un holda olib borish haqidagi fikrlari va uning g'oyalariga yashagan davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning ta'siri kabi mavzular yoritilgan.

Kalit so'zlar: Y.A.Komenskiy, "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi", "Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat" pansofiya g'oyasi, umumta'lim g'oyasi, o'qituvchining o'rni va unga qo'yilgan talablar, tarbiya va intizom.

Abstract: In this article, Garbiy made a significant contribution to the development of the science of pedagogy Pedagogical views of the European scientist Jan Amos Comenius, in his works the purpose of education is to conduct education in harmony with nature his thoughts and ideas about the socio-political situation of the time he lived such topics as the influence of the environment are covered.



Key words: Y.A. Komensky, “Great didactics”, “Mothers' school”, “Human society” the idea of pansophia, advice that applies to everyone about improving their work, the idea of general education, the role of the teacher and the demands placed on him, education and discipline.

Аннотация: В этой статье Гарбий внес значительный вклад в развитие науки педагогики. Педагогические взгляды европейского учёного Яна Амоса Коменского в его трудах цель образования – проводить обучение в гармонии с природой его мысли и представления об общественно-политической ситуации того времени, когда он жил затронуты такие темы, как влияние окружающей среды

Ключевые слова: Ю.А. Коменский, “Великая дидактика”, “Материнская школа”, “Человеческое общество”. Идея пансофии, совета, который касается каждого по поводу улучшения своей работы, представление об общем образовании, роль учителя и требования, предъявляемые к нему, образование и дисциплина.

Mashhur donishmand, chexoslaviyalik gumanist-pedagog Ya.A.Komenskiy demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixidan o‘rin oldi. U o‘zining amaliy hayotini, faoliyatini, ilmiy asarlarini, xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag‘ishlagan ulug‘ pedagogdir.

Chex olimi Komenskiy 1592-yilda Moraviyadagi Ugorskiy Brod shahrida tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi Moraviyada Koman qishlog‘idan ko‘chib kelishgan, shuning uchun ham ularni bu yerda Komnachilar oilasi deb atashgan. Ota-onasidan erta ajralgan bo‘lajak pedagog 16 yoshida “Chex qardoshlari” jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o‘qishga kiradi. Maktabni tamomlab, Germaniyadagi Xorborni universitetida o‘qishini davom ettiradi. Avstriya va Gollandiyada yashab, ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi. Yevropa bo‘ylab sayohat qilgan, o‘z davridagi ijtimoiysiyosiy



hayot, undagi nohaqliklar, agressiv bosqinchiliklar, oddiy xalqning ezilishi Komenskiyning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyatdagi notekislarni, ijtimoiy nohaqliklarni, yashash darajasini o'zgartirishni yosh pedagog bilim olishda deb biladi. Ongli mavjudot bo'lish demak, tadqiqot etish, aniqlash, oldindan ko'ra bilish, ya'ni olamda mavjud bo'lgan narsalarni tushunishdir. Yana u "Oллоh insonni bu dunyoda yaratar ekan uning sirlari bilan tanishtirib o'tirmaydi. Chunki, uning o'zi tanishib olish uchun aql-idrok berdi- deydi. U insoniyatga murojaat qiladi. O'zlaringizni bilimli qilish uchun kurashingiz! Axir nodonlikdan yana va yana yomonlik kelib chiqadi". Komenskiy insonga ajoyib mikrokosmos deya ta'rif beradi. Maktabni esa insonparvarlik ustaxonasi deya ataydi. U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga bog'liq 250 dan ortiq asar va darsliklar yaratgan. Ulardan biri "Buyuk didaktika" asaridir. "Buyuk didaktika" asari XVII asrning 1-yarmida yozilgan bo'lib, bu asarda bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlari ishlab chiqilgan.

Komenskiyning "Hamma narsani bilish, hammaga bilim berish" shiori ostida yozilgan bu asari ilg'or fikrli inglizlarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu asar chex tilida yozilgan bo'lib, uning "Buyuk didaktika" deb atalishi ham bejiz emas; kitob unda tilga olingan va hal etilgan masalalarning ko'lami hamda ahamiyati jihatidan buyuk mumtoz asardir. Asarda bayon etilgan asosiy fikrlardan biri tarbiya va o'qitishning tabiatga uyg'un bo'lishi va tabiatdagi barcha mavjudotni yagona bir qonunga bo'ysunadi degan g'oyani olg'a suradi. Tarbiyaning tabiatga moslik tamoyilini birinchi marotaba Komenskiy nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqdi. Komenskiy maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak, tabiatni ham o'z harakatlarida namoyon qilayotgan jarayonlarini kuzatishga asoslanib bilish lozim, deb ta'lim beradi. Ta'lim-tarbiya "Bolaning tabiiy qobiliyatlariga moslansa, yengil va osonroq o'qitish mumkin" degan fikrni ilgari suradi.

Komenskiy o'rta asrdagi tarbiyadan farqli o'laroq, tug'ilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini xudoning tuhfasini hisobladi va ayni paytda, bu qobiliyat faqat tarbiya



jarayonida rivojlanishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning oʻrni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli, maʼlumotli qilib yetishtirish mumkin degan fikrni bildirdi, Bolani yoshlik chogʻidan jismonan sogʻlom, maʼnaviyatli qilib tarbiyalashni talab qildi. Komenskiy maktab bolalariga har tomonlama bilim berishi, ularning aql-idroki, axloqi, his-tuygʻulari va irodasini rivojlantirish lozimligini taʼkidlaydi. Ish vaqtida aql nima bilandir band boʻlishini va rivojlanishini uqtiradi. Komenskiyning axloqiy Komenskiy inson rivojlantirishini toʻrt bosqichga: goʻdaklik, bolalik, oʻsmirlik, yetuklik davrlarga boʻladi. Komenskiy tugʻilganidan boshlab 6 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun alohida onalar maktabini ochishni, ularga onalar rahbarligida taʼlim va tarbiya berishni tavsiya etadi. Uning tavsiyasi boʻyicha, 6 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan bolalar oʻqish ona tilida olib boriladigan maktabda taʼlim oladilar. Ilm olishga moyilliga sezilgan 12-18 yoshli yigit qizlar shaharda tashkil etiladigan lotin maktabi yoki gimnaziyaga borishlari lozim. Komenskiy olim boʻlishni xohlagan 18 yoshdan 24 yoshgacha boʻlgan yoshlar uchun har bir davlatda akademiyalar tashkil etishni taklif qiladi. Komenskiyni qatorlashgan gʻoyalar tizimiga ega boʻlgan “Onalar maktabi” asarini birlamchi oilaviy tarbiya boʻyicha birinchi asar deb atash mumkin. “Onalar maktabi” asarining bosh gʻoyasi - oiladagi birlamchi tarbiyani bola uchun quvonchli boʻlishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yoqimli va umidbaxsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iborat. Komenskiy tabiiy iqtidorni ilk yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish gʻoyasidan kelib chiqib, onalar maktabi oldiga qiyin vazifalarni, yaʼni: bolalarga bilishni, harakat qilishni va gapirishni oʻrgatish vazifalarini qoʻyadi. Olim oʻtmishdagi pedagoglar ichida birinchilardan boʻlib, nutqni rivojlantirish ona tilining butun goʻzalligini va uning milliy xususiyatlarini oʻzlashtirib olishda xalq ogʻzaki ijodiyotining tutgan oʻrniga eʼtibor qaratdi. Komenskiy oʻyinni bolalar uchun zarur boʻlgan faoliyat shakli deb hisoblaydi. U ota-onalarga bolalarning oʻyiniga xalaqt bermaslikni, oʻyinda oʻzlari ham ishtirok etib, ularni toʻgʻri yoʻlga solishni tavsiya qiladi. U bolalar oʻyining



ta'limiy ahamiyatini qayd qilib o'yin tarbiya haqidagi nasihatlarini diniy asosdadir. Ammo uning axloqiy tarbiya vazifa va vositalariga doir ko'rsatmalari o'sha davr uchun yangilik bo'lgan. Shuning uchun ham tarbiyada ijobiy ahamiyat kasb etgan. Komenskiy tarbiya bilan bir qatorda intizomning ham katta ahamiyati borligini ko'rsatib, "Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondur" degan chech maqolini misol qilib keltiradi. O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Intizom: o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati, Bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari o'rtasida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi, deydi Komenskiy ota-onalardan bolalarda maktabga muhabbat va qiziqish uyg'otishni, bo'lajak o'qituvchi obro'yini yuqori ko'tarishni talab etadi.

Buyuk chech pedagogi o'z faoliyati ona tilida umumiy ta'lim berish g'oyasini ilgari suradi va uning mohiyatini asoslab beradi. Komenskiy o'sha davr uchun ilg'or ta'lim va tarbiya tajribalarini umumlashtirib, oxirgi ilmiy yutuq va ma'lumotlarga tayanib, birinchi marta xalq maorifining yagona sistemasini ilmiy ravishda ishlab chiqadi. Bu sistema demokratizm ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ommaning bilimga intilishini aks ettiradi.

Komenskiyning "Onalar maktabi" asari G'arbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Gumanist olimning kishilik jamiyatini isloh qilish g'oyasi ilgari surilgan "Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat" nomli 7 jilddan iborat katta asari ham mavjud. Bu asar 20 yil davomida yozilgan va bu asar orqali o'zining barcha faoliyati haqida xulosa chiqarishga muvaffaq bo'lgan. Olim hayotligi vaqtida asarning 2 jildi, qolgan parchalari esa XVII asrning oxirida nashrdan chiqqan. Asar to'liq 1966-yilda lotin tilida nashr etilgan. Bu asarida "Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish" ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi.



"Buyuk didaktika" asarida **"pansofiya g'oyasini"** (*pan* grekcha – butun, hamma, *sofiya* – donolik, aqllilik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish** demakdir. Pansofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab–bu muassasa u yerda "Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak" degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz. Komenskiy garchi tarbiyani bola oilada yoshlikdan olish kerakligini ta'kidlagan bo'lsa ham, pansofiya g'oyasiga ko'ra bola maktabda ta'lim bilan birgalikda tarbiyani ham olishi kerak degan fikrni bildiradi. Chunki pansofiya g'oyasining asosi shuni tashkil qiladi.

Komenskiyning pansofiya ishi Angliyaning ilg'or kishilari tomonidan quvvatlanib, parlament tomonidan chaqiriladi. Komenskiy 1641-yil Angliyaga keladi lekin fuqarolar urushi boshlanishi natijasida bu ish qolib ketadi. Komenskiyning pedagogik g'oyalariga barcha qiziqish bildirganidan so'ng, uni turli mamlakatlarga taklif eta boshlaydilar. Shvetsiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradi. Shu yillar davomida "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" degan asar yozib o'qish ishini rasmlar bilan olib borish g'oyasini ilgari suradi. Bunda "Yoshlarning xulq qoidasi", "Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni" degan bir qancha pedagogika faniga doir ishlar berilgan. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud bo'lgan. U esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umumboshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'rta asrlarda xotin-qizlarni o'qitish qiyin masala bo'lgan. Komenskiy esa erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham ilimli bo'lishi kerakligi masalasini ko'ndalang qo'ygan.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini manguilik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.



2. Axloqiy tarbiya

3. Diniy tarbiyalardir.

Komenskiy o'z davrda iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etadi. O'qituvchilarni "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" deb hisoblagan. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmagan. Komenskiy o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini ham aytib o'tadi. O'qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'qituvchilarga ota-onasidek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. "O'zi namuna ko'rsatib, o'qituvchilarni ergashtirishi o'qituvchining birinchi vazifasidir", – deydi u.

Xulosa o'rnida ayib o'tish joizki, o'zining mustaqil pedagogik g'oyalariga ega bo'lgan taniqli gumanist olim Komenskiyning asarlari boshqa tillar bilan bir qatorda o'zbek tilida ham chop etilgan. Uning asarlari Yevropada 150 yildan ortiq vaqt davomida boshlang'ich ta'lim uchun darslik sifatida foydalanilgan. Olimning asarlari maktab taraqqiyotiga va pedagogika sohasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Komenskiyning pedagogikasi ilmiy pedagogika bo'lib, jahon madaniyatiga qo'shilgan ulkan hissadir. U targ'ib qilgan g'oyalar butun Osiyo davlatlariga ham kirib kelgan. Komenskiyning qarashlari hozirda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Uning asarlari va g'oyalari bizlarga juda as qotmoqda. Uning asarlari mohir pedagog bo'lishimizda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)



2. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3,734-745 (2023)
3. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995
4. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023) ISSN(e): 2833-5414
5. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.